

ODIL YOQUBOV ROMANLARIDA INSONIY QADRIYATLAR

Jahongir KOMILJONOV

*Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi, KIUT, Xorijiy tillar
kafedrası o'qituvchi*

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakili Odil Yoqubov romanlarida aks ettirilgan insoniy qadriyatlar chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarida adolat, halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, inson sha'ni va or-nomus kabi yuksak axloqiy g'oyalarni talqin etgan. Ushbu maqolada aynan shu qadriyatlarning qahramonlar xarakteri orqali qanday ifodalangani, ularning hayotiy voqealar fonida qanday namoyon bo'lishi tahlil etiladi. Shuningdek, bugungi yosh avlod tarbiyasida Odil Yoqubov ijodining roli yoritiladi va uning romanlari orqali o'quvchilarda ma'naviy ongni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Odil Yoqubov, insoniy qadriyatlar, adabiyot, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, halollik, roman, ma'naviyat, obraz tahlili, yoshlar tarbiyasi.*

O. Yoqubov rang-barang adabiy tur va janrlarda ijod qiladi. U hikoya, qissa, drama va publisistikada tajriba orttirgach, nasrning eng murakkab turi hisoblangan romanga qo'l urdi. Uning “Er boshiga ish tushsa” (1969), “Diyonat” (1973), “Ulug‘bek xazinasini” (1974), “Ko‘hna dunyo” (1983), “Oqqushlar, oppoq qushlar” (1988), “Adolat manzili” (1997), “Osiy banda” (2007) kabi romanlarida turli davrlarda yashagan turli tabiatli insonlarning ruhiy olami, ma'naviy dunyosi, iztirob-u quvonchlari mahorat bilan aks ettirilgan.

“Er boshiga ish tushsa” romani – O. Yoqubov ijodidagi dastlabki yirik asar. Adib asarda ikkinchi jahon urushi davrida front ortidagi o'zbek qishloqlarida Mashrab, Qo'chqor, Gulchehra, Muyassar, Barno, Ertoev kabi qator obrazlar bilan yuz bergan voqealarni hayotiy va badiiy mantiqqa muvofiq tasvirlagan. Urushga

yaraydigan erkaklarning hammasi jangda bo'lganidan front ortidagi eng og'ir yumushlar xotin-qizlar va o'smirlar zimmasida qolgani, ularning tinim bilmay og'ir mehnat qilishiga qaramay, o'sha kunlarda ham, o'ziga yarasha quvonchli, yorug' damlarni boshidan kechirgani asarda ta'sirli ifoda etilgan. Dunyo bo'ylab urush borayotgani, har kuni minglab odamlar o'ldirilayotgani, front ortidagi hayot jangdagidan battaroq ekani, dushman ustidan qozoniladigan g'alaba odamning qadru qiymati va hatto jonidan ham ortiq hisoblanishiga qaramay, asar qahramonlari bo'lgan o'spirinlar uchun bu kunlar qaytarilmas va eslaganda entiktiradigan davr hisoblanadi. Romanda qahramonlarning xatolari, azoblari, quvonchlari, rohatlari, shumligu sho'xliklari aks ettirilgan. Xullas, kechirilgan to'laqonli hayotning tasviri kitobxonni o'ziga rom etadi.

Asar bosh qahramonlaridan biri – shoirtabiat yigit Mashrab qo'shni qiz Muyassarga oshiq. Ammo qizning o'ziga munosabati qandayligini bilmaydi. Asarda yigitchaning shaftoli terayotgan Muyassar bilan Gulchehra o'zlari haqida gaplashganlarini eshitgandagi holati: *“Nazarimda, tog'lar ortidan ko'tarilgan oftob u yoqda qolib, o'z ko'ragidan boshqa bir oftob chiqqanday, bu oftob butun olamni yashnatib yuborganday, bog'larga ko'milgan katta qishloq pastdagi soylik, to'g'on bo'yidagi laylak uya qo'ygan oq teraklar, suvga salom berib o'sgan majnuntollar – hammasi to'satdan bo'lakcha bir joziba kashf etganday bo'ldi”* tarzida ifodalanadi. O. Yoqubov roman qahramonlarini “yo'rig'iga” yuritmaydi, ularni o'z holiga qo'yadi. Aytaylik, handalak o'g'irlab, qo'lga tushgan Mashrablarning bu qiligi kimlargadir bolalik sho'xligi tuyulsa, qay birovlariga atay qilingan dushmanlik bo'lib ko'rinadi. Muallif o'z qarashini o'tkazishga urinmaydi. Yigitlarning qizlar, ota-onalari, xo'jalik rahbarlari bilan munosabatlarida ham shu tabiiylik saqlanadi.

Asarda Komilning yarador bo'lgach, urushdan qishloqqa qaytishi va muayyan lavozimga ega bo'lgach, zulmu zo'ravonlik iskanjasidagi qahramonlar hayotiga erkin ruh olib kirishi ishonarli ko'rsatiladi. Sofdil, samimiy, sodda bu yigit, avvalo, Mashrablarni balo-qazolardan asrashga urinadi. Qolaversa, ko'pchilikka zug'um

o'tkazayotganlarga qarshi kurashishga bosh qo'shgani tasviri har qanday sharoitda ham yaxshi odamlar bo'lishiga kishida ishonch uyg'otadi. Mashrabga tengdosh yigitlarning Komil boshchiligida qo'shni qozoq qishloqlaridan urug'lik olib kelish yo'lidagi qiyinchiliklari, mashaqqatlari, ularning beozor sho'xliklari juda tabiiy va yuqumli tasvirlangan. Romanda chinakam erkak boshiga ish tushganda, juda tez yetilib, ko'pchilikning koriga yaraydigan kishiga aylanishi mumkinligi sho'x va qaytmas o'spirinlar taqdiri tasviri misolida yaqqol ko'rsatiladi.

Odil Yoqubovning mashhur asarlaridan biri "Diyonat" romanidir. Romanda muallif XX asrning 70-yillarida sho'rolar mamlakatida ildiz otgan ko'zbo'yamachilik, sun'iylik, zo'ravonlik singari illatlarning insonlar taqdirida qoldirgan izlarini tasvir etgan. Adib asarda jamiyat uchun "katta ishlar qildim" degan bahonada odamlarning boshiga chiqib olib, qonunlarni ham, odamiylikni ham oyoqosti qilishdan toymaydigan rahbar obrazini yaratish, uning parvozi va inqirozi asnosida tuyg'ularini ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi.

Ma'lumki, ijtimoiy mavzularni tasvirlashga majbur bo'lgan sho'ro davri o'zbek adabiyotida XX asrning 50-60-yillarida ham o'zboshimcha rahbar xodimlar obrazi ko'p yaratilgan. Ularning ko'pchiligi nuqul salbiy xususiyatlar qorishmasidan iborat tarzda biryoqlama ko'rsatilardi. O. Yoqubov bu yo'ldan bormadi. Romanda Otaqo'zi murakkab tabiatli, kuchli va ojiz tomonlari bor tirik odam tarzida tasvirlangan. Otaqo'zining fikrlari sog'lom, bilim doirasi keng, ishlab charchamaydi, katta tashkilotchilik qobiliyatiga ham ega. Erta-yu kech xo'jalik ishi bilan band bu rahbar xodim oila, farzandlari, qarindosh-urug'lar taqdirini ham o'ylaydi. Boshda u dilkash, tanti odam sifatida ko'rinadi. Ammo u o'zi ham bilmagan va xohlamagan holda, bora-bora o'jar, mag'rur, o'zboshimcha, shafqatsiz, toshbag'ir kimsaga aylana boradi. O'z manfaatlariga zid kelib qolsa, haqiqatning yuziga oyoq qo'yish, boshqalarni oyoq uchida ko'rsatish, qanday yo'llar bilan bo'lsada, obro'-e'tibor orttirish yo'liga o'ta boshlaydi. O'g'lining natijalari hali amaliyotda tasdiqlanmagan dissertasiyasini himoya qildirishga jon-jahdi bilan intiladi. O'g'li mashinasida odam bostirganida ham uning aybini

yopishga urinadi. Asarda Otaqo'zi tomonidan o'tkazilgan zug'umlar, o'zboshimchaliklarning natijasi ham ishonarli ko'rsatilgan. Hayot uddaburon va zo'ravon Otaqo'zi boshiga ham chigal savdolar soladi. Har qanday mushkulotni hal qilaman deb o'ylaydigan Otaqo'zi o'zi va yaqinlari hayotiga yorug'lik kirita olmay, iztirob chekadi, qiynaladi.

Yozuvchi Otaqo'zi timsolini yaratishda me'yorni saqlaydi, uning tabiatidagi insoniy xususiyatlarni ham ko'rsatishga erishadi. Otaqo'zining domla vafot etgandan keyingi holatlari, fikr-o'ylari ayniqsa, tabiiy va hayajonli: *"Ilgarilari o'ksitganing yetmaganidek, umrining eng so'nggi daqiqalarigacha, byetgachoparlik qilmadingmi bu halol va hokisor odamga? Soxta obro', yuksak lavozim va o'tkinchi shon-shuhratni deb, uning yaxshi niyatlarini rad etib, yaxshi gaplarini oyoqosti qilmadingmi? Hatto peshonang devorga tekkanda ham o'z obro'-e'tiboring uchun olishayotganing yo'qmi? Bas! Bo'ldi! Loaqal endi, bu maqaddas qabr tepasida munofiqlik qilma, loaqal endi, hayotning rahmsiz hukmi oldida halollikni, diyonatni o'yla, Otaqo'zi!"*

"Otaqo'zilar qilgan adolatsizliklarni butun borligicha ko'rsatish uchun unga qarshi turadigan ...katta shaxs zarur edi, – deydi yozuvchi. – Baxtimga men hayotda faqat Otaqo'zi kabi... kimsalarni emas Normurod Shomurodovga o'xshagan pok, halol insofli, diyonatli insonlarni ham uchratgandim". Bu hol yozuvchiga kalondimog' Otaqo'zi bilan barobar Normurod domla hayotini ham mahorat bilan ochish imkonini beradi.

Domla shonli hayot yo'lini bosib o'tgan. Biroq taqdir uni siylamagan, boshiga ko'p kulfatlar, og'ir sinovlar solgan. U – bor kuchini, umrini fanga bag'ishlab, evaziga hech narsa talab va ta'ma yetmaydigan shaxs. Normurod domla roman mohiyatni aks ettirgan diyonatning timsolidir. U e'tiqod, hallolik, adolat yo'lida hech kimni, shu jumladan o'zini ham ayamaydi. Adolat, diyonat deb u bir umr tuban kimsalar bilan olishishga majbur bo'ladi. Bu olishuvlar Normurod domla dilini vayron etadi. Domlada diyonat, adolat, e'tiqod yo'lidagi qat'iylik, chuqur insonparvarlik, mehr, hamdardlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilib ketgani uchun ham

undagi o'jarlik, qat'iylik joziba kasb etadi.

Asarda ilm yo'lidagi halolligi tufayli fandagi korchalonlar tomonidan chetga surilib tashlangan Normurod Shomurodovning shaxsiy va ijtimoiy fojiasi ham yorqin aks ettirilgan. U – o'z sohasining yetuk mutaxassisi, bilimdon professor. Ammo shaxsiy hayoti fojiali: yolg'iz o'g'li jangda halok bo'lgan, fanda tengsiz bo'lishiga qaramay, tarfkash chalamullalar tomonidan siqib qo'yilgan. Bu azoblar uning o'zidan ham ko'ra diyonatli, mushfiq-mehribon ayoliga zarba bo'lib tushadi va uning o'limini tezlatadi. Tamomila yolg'izlanib, shaharga sig'may qolgan domla yiqqan kitoblarini olib, qishlog'iga qaytishga majbur. Qishloqda esa unga yaqin birgina kishi rais Otaqo'zi.

Normurod Shomurodov tabiatan halol va to'g'riso'z. Agar ilmiy jihatdan etuk bo'lmasa, o'z shogirdlariga ham yordam bermaydi. Buni domlaning o'z jiyani Otaqo'ziga qarata: *“Nega endi men... qarigan chog'imda... sening o'g'lingni deb, vijdonimga qarshi ish tutar ekanman”*, – deganida yaqqol ko'rish mumkin bo'ladi. U Otaqo'zining qishloqdagi boshqa nojoiz ishlariga, jumladan, chorvachilik kompleksi qurish uchun Mingbuloqning go'zal tabiatiga zarar yetkazishiga ham qarshi chiqadi. Otaqo'zi tomonidan unga berilgan uy boshqa bir oilaning haqi ekanini eshitib, bu uyda turmay, kutubxonasini maktabga ko'chiradi. Bularning hammasi tog'a va jiyan o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Bu esa domlaning salomatligini emirib boradi.

Muallif Normurod domla obraziga xos yetakchi fazilatlar: diyonat, halollik, e'tiqodning jozibasini, ta'sir kuchini, qudratini ham ko'rsatgan. Bir qarashda, domla musibatlar girdobida qolgan shaxs. Ayni paytda, kitobxon bu odam ayanchli, nochor kimsa emasligini anglab turadi. Bu adolatparvar, diyonatli odam qarshisida har qanday nopok shaxs dovdirib qoladi.

Romanda inson diyonat va xiyonat oralig'ida umr kechirishi, agar imonga darz ketsa, kishi xiyonat tomon og'ib ketishi hech gap emasligi Otaqo'zi taqdiri misolida ko'rsatib berilgan bo'lsa, halol odamlar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar Normurod Shomurodov siymosida haqqoniy aks ettirilgan.

Odil Yoqubov XX asr o'zbek adabiyotida, xususan, o'zbek nasrida burilish yasagan, o'ziga xos davr yaratgan so'z san'atkoridir. O'zbek adabiyotshunoslarining ko'rsatishlaricha, Odil Yoqubov asarlarining o'zgachaligi ulardagi shakliy izlanishlarning originalligidan ham ko'ra mazmunning teranligi, ularda aks etgan inson obrazining sof milliy tabiatga egaligi, tasvir tarzining o'zgacha ekanida namoyon bo'ladi. Bu jihatlar adib asarlarini o'qigan kishilarda ezgulikka muhabbat, yuksak ma'naviy xususiyatlarga intilish, xalqimizga azaldan xos bo'lgan axloqiy sifatlarga mehr uyg'otadi. Ayni shuning uchun ham umumta'lim maktablarida Odil Yoqubovning asarlariga kengroq o'rin berish kerak. Negaki, uning ham badiiyati yuksak, ham mazmuni teran asarlari bilan ertaroq tanishuv umumta'lim maktablari o'quvchilarida ezgu insoniy sifatlarning ertaroq va mustahkamroq qaror topishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar 8 (8-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma). –T.: "Sharq", 2004.
2. Yo'ldoshev Q. Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiy saboqlar 9 (9-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma). –T.: "Yangiyo'l Poligraph service", 2006.
3. To'xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning birinchi bosqich o'quvchilari uchun. –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
4. To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun. –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
5. To'xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun. –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
6. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinflar). –Yangiyo'l: "Yangiyo'l poligraf service", 2010.